

Hujayra (lotincha "katakcha", "uycha") – barcha hayotiy organizmlarning tuzilish, tarkibiy va funksional birligi bo‘lib, viruslar bundan mustasno. Hujayra organizmning hayotiy faoliyatini amalga oshiruvchi eng kichik birligi hisoblanadi.

Plastidalar (yun. plastos – shakllangan) – avtotrof o‘simliklar hujayrasining pig‘mentli organoidlari bo‘lib, organik moddalar sintezini amalga oshiradi. Yuksak o‘simliklarda plastidalar uch xil bo‘ladi: yashil xloroplastlar (XP), rangsiz leykoplastlar (LP) va rangli xromoplastlar (XR).

Xloroplastlar (yun. chloros – yashil va plastos – yasalgan) – o‘simliklarning fotosintez jarayonini amalga oshiradigan ichki organoidlari. Xloroplastlar o‘simliklarning yer ustki qismida joylashgan hujayralarida, ayniqsa barglar va yashil mevalarda ko‘p uchraydi.

Xromatoforalar – yashil suvo‘tlar hujayrasidagi xloroplastlar.

Xromoplastlar (yun. xroma – rang va plastos – yasalgan) – pishgan mevalar, gultojbarglar, kuzgi yaproqlar, ba'zi sabzavot ildizlari (masalan, sabzi) hujayralarida uchraydigan sariq, to‘q sariq, qizil rangli plastidalar.

Leykoplastlar (yun. leyko – rangsiz va plastos – yasalgan) – o‘simlik hujayralaridagi rangsiz organoidlar bo‘lib, asosan o‘simliklarning rangsiz qismlarida joylashadi. Ular monosaxarid va ba'zi disaxaridlardan kraxmal hosil qiladi, ba'zi o‘simliklarda esa oqsil donachalarini tashkil etadi.